

TO‘QIMACHILIK SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING NAZARIY ASOSLARI

Nurullayeva Mexribon Muratovna

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish mexanizmining nazariy asoslari tadqiq etildi. Sanoat rivojlanishi nazariyalari, global qiymat zanjiri va institutsional trayektoriya konsepsiyalari qiyosiy hamda tizimli tahlil qilindi. Ishlab chiqarish hajmi, eksport tarkibi, qayta ishlash chuqurligi va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik baholandi. Natijada institutsional, investitsion va innovatsion vositalarni birlashtiruvchi, teskari aloqa konturlariga ega ko‘p darajali boshqaruv arxitekturasini ishlab chiqildi. Tarmoqning moddiy bo‘g‘inlari to‘liq shakllangani, nomoddiy bo‘g‘inlari esa faol rivojlanayotgani aniqlandi. Rag‘batlantirish mezonlarini qayta ishlash chuqurligi, qo‘shilgan qiymat va unumdorlik ko‘rsatkichlari bilan boyitish taklif etildi. Yondashuv tarmoqning global qiymat zanjiridagi mavqeyini yanada mustahkamlash, barqaror raqobatbardoshligini hamda eksport salohiyatini izchil oshirishga xizmat qilishi asoslandi.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, iqtisodiy rivojlantirish mexanizmi, global qiymat zanjiri, qayta ishlash chuqurligi, qo‘shilgan qiymat, institutsional mexanizm, eksport salohiyati, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В статье исследовались теоретические основы механизма экономического развития текстильной промышленности Узбекистана. Теории промышленного развития, глобальных цепочек стоимости и институциональной траектории подвергались сравнительному и системному анализу. Оценивалась взаимосвязь между объёмом производства, структурой экспорта, глубиной переработки и производительностью труда. В результате была разработана многоуровневая архитектура управления, объединявшая институциональные, инвестиционные и инновационные инструменты с контурами обратной связи. Было установлено, что материальные звенья отрасли полностью сформировались, а нематериальные активно развивались. Предлагалось дополнить критерии стимулирования показателями глубины переработки, добавленной стоимости и производительности. Обосновывалось, что предложенный подход способствовал укреплению позиции отрасли в глобальной цепочке стоимости, повышению её устойчивой конкурентоспособности и совершенствованию механизмов отраслевого управления на практике.

Ключевые слова: текстильная промышленность, механизм экономического развития, глобальная цепочка стоимости, глубина переработки, добавленная стоимость, институциональный механизм, экспортный потенциал, конкурентоспособность.

Abstract

The article examined the theoretical foundations of the economic development mechanism for Uzbekistan's textile industry. Industrial development, global value-chain, and institutional trajectory theories were analysed. Relationships among production volume, export composition, processing depth, and labour productivity were assessed. A multilevel governance architecture combining institutional, investment, and innovation instruments with feedback loops was developed. The material stages of the industry were fully established, while intangible stages were actively developing. It was proposed that incentive criteria be supplemented with processing depth, value added, and productivity indicators. The approach was shown to strengthen the industry's global value-chain position, sustainable competitiveness, and sectoral governance mechanisms.

Keywords: textile industry, economic development mechanism, global value chain, processing depth, value added, institutional mechanism, export potential, competitiveness.

KIRISH

To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, uning oldiga qo'yilgan vazifalar so'nggi yillarda sifat jihatidan yangilandi. Tarmoqni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan hujjatda 2025-2027-yillar uchun mahsulot eksportini bosqichma-bosqich oshirish, AQSH va Yevropa bozorlariga tayyor mahsulot yetkazib berishni kengaytirish, ilg'or texnologiyalar va zamonaviy dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy etish hamda umumiy eksportda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ulushini 70 foizga yetkazish maqsadli ko'rsatkichlari mustahkamlangan [1]. Oldingi bosqichda qabul qilingan hujjatlar tarmoqni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish va chuqur qayta ishlashni rag'batlantirish tizimini shakllantirgan edi [2].

Belgilangan maqsadlar tarmoq rivojlanishining mazmunini aniq ifodalaydi: e'tibor markazi ishlab chiqarish quvvatini kengaytirishdan qiymat zanjiridagi mavqeni mustahkamlashga ko'chirilmoqda. 2025-yilda tarmoqda ishlab chiqarish hajmi 134 trillion so'mga yetdi, eksport tarkibida esa tayyor mahsulot ulushi sezilarli oshdi [3]. Bu ikki jarayon birgalikda tarmoqning yangi bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi va rivojlantirish mexanizmini nazariy jihatdan qayta talqin qilish uchun qulay asos yaratadi.


Nazariy nuqtai nazardan to'qimachilik sanoati bir necha texnologik bo'g'indan - tola yetishtirishdan tayyor kiyim savdosigacha - iborat yaxlit zanjir bo'lib, bu bo'g'inlarning har biri o'ziga xos daromad darajasiga ega. Rivojlantirish mexanizmi bo'g'inlarning ana shu xususiyatini hisobga olib tabaqalashtirilganda, hajm o'sishi bilan bir qatorda qo'shilgan qiymatning o'sishi ham ta'minlanadi. Ushbu bog'liqlikni ochib berish mexanizm nazariyasining markaziy vazifasi hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi - to'qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish mexanizmini tizimli talqin qilish, uning natijaviy mezonlarini aniqlashtirish hamda ko'p darajali arxitekturasini shakllantirishdan iborat. Vazifalar uch qismga bo'linadi: sanoat rivojlanishi nazariyalarining evolyutsiyasini ko'rib chiqish; O'zbekiston

to'qimachilik sanoatining qiymat zanjiridagi mavqeyini baholash; aniqlangan qonuniyatlar asosida mexanizmning tizimli modelini taklif etish.

ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat rivojlanishi nazariyalari to'rt bosqichli evolyutsiyani bosib o'tgan, bunda har bir yangi bosqich avvalgisini boyitib, tahlil doirasini kengaytirgan.



1-rasm. Sanoat rivojlanishi nazariyalarining evolyutsion bosqichlari¹

Birinchi bosqichda U. Rostou iqtisodiy o'sishni bosqichli jarayon sifatida tavsiflab, sanoatlashuvni "uchish" bosqichining sharti deb qaradi [4], A. Xirshman rivojlanishning manbaini tarmoqlararo bog'lanishlarda ko'rdi [5], N. Kaldor esa qayta ishlash sanoati o'sishi butun iqtisodiyot unumdorligini belgilashi haqidagi qonuniyatlarni ilgari surdi [6]. Ushbu uch ish rivojlantirish mezonini sifatida ishlab chiqarish quvvati hajmini qabul qilib, sanoat bazasini shakllantirish mantig'ini asosladi.

Ikkinchi bosqichda A. Amsden Janubiy Koreya tajribasi asosida davlatning maqsadli sanoat siyosatini kech sanoatlashgan mamlakatlar uchun rivojlanish omili sifatida ko'rsatdi [7]. Bu yondashuvda mezon hajmdan eksport tushumiga ko'chdi va tarmoqni tashqi bozorga yo'naltirish g'oyasi ilmiy asos oldi.

Uchinchi bosqichda G. Gereffi kiyim-kechak zanjiri misolida qiymatning bo'g'inlar o'rtasida notekis taqsimlanishini isbotladi va daromadning katta qismi xaridor boshqaradigan bo'g'inlarda shakllanishini ko'rsatdi [8]; keyinchalik bu yondashuv boshqaruv turlari nazariyasi bilan to'ldirildi [9]. M. Porter raqobat ustunligini tarmoq muhitining sifatidan izlash lozimligini asosladi [10], J. Xamfri va X. Shmits esa yuksalish natijasi zanjirdagi boshqaruv turiga bog'liqligini aniqladi [11]. Gereffi tavsiflagan model O'zbekiston sharoitida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi: bu yerda zanjirdagi mavqeni tashqi xaridor bilan bir qatorda ichki rag'bat tizimi va institutsional shartlar ham shakllantiradi, bu esa masalani milliy siyosat vositalari orqali hal qilish imkonini beradi.

To'rtinchi bosqichda A. Szirmai sanoatlashuvning o'sishga ta'siri saqlanib qolayotganini va uning kuchi institutsional muhit sifati bilan belgilanishini ko'rsatdi [12], D. Rodrik rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat ulushi dinamikasining o'ziga xosligini tavsifladi [13], J. Lin esa rivojlantirish siyosati mamlakatning mavjud omil tarkibiga mos bo'lishi samarali natija berishini asosladi [14]. Ushbu qarashlar birgalikda uzoq muddatli ustunlik manbaini institutlar sifati va texnologik salohiyatda ko'rsatadi.

¹ Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Qiymat zanjiridagi mavqeni mustahkamlash tabiatini R. Mudambi izohlaydi: yuqori daromad ishlab chiqarishdan oldingi (dizayn, tola sifati) va keyingi (brend, savdo) bosqichlarda shakllanadi, chunki bu bosqichlar nomoddiy aktivlarga tayanadi [15]. R. Kaplinski va M. Morris zanjir tadqiqotining metodologik asosini beradi [16], J. Xamfri va X. Shmits esa yuksalishning to'rt turini - jarayonni takomillashtirish, mahsulotni takomillashtirish, funksional yuksalish va tarmoqlararo o'tishni - ajratadi [11]. M. Makmillan va D. Rodrik tarkibiy o'zgarishning unumdorlik o'sishida mustaqil manba ekanini ko'rsatadi [17].

Tarmoqning muayyan bo'g'ida barqaror joylashuvi institutsional iqtisodiyotda alohida nazariy asosga ega. U. B. Artur texnologiyalar orasidagi tanlovda dastlabki ustunlik o'suvchi qaytim mexanizmi orqali mustahkamlanishini ko'rsatdi [18], P. Devid esa bunday trayektorianing uzoq muddat saqlanib qolishini klassik misolda asosladi [19]. Trayektoriya nazariyasi tizimning yo'nalishini o'zgartirish uchun boshlang'ich tanlovni shakllantirgan kuchga mutanosib impuls zarurligini ko'rsatadi - bu qonuniyat rag'batlantirish mezonlarini yangilashning strategik ahamiyatini ilmiy jihatdan izohlaydi.

Mexanizmga oid yondashuvlarning qiyosiy tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tarmoqni iqtisodiy rivojlantirish mexanizmiga oid yondashuvlarning qiyosiy tahlili¹

Yondashuv	Vakillari	Mexanizm talqini	Rivojlantirish imkoniyati	Manba
Funksional	Rostou, Xirshman, Kaldor	Rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish va nazorat funksiyalarining ketma-ketligi	Funksiyalar o'rtasidagi ustuvorlikni aniqlashtirish	[4], [5], [6]
Instrumental	Amsden	Soliq, kredit, bojxona va investitsiya vositalarining majmui	Vositlarni zanjir bo'g'inlari bo'yicha tabaqalashtirish	[7]
Tarmoq-zanjir	Gereffi, Xamfri, Shmits, Porter	Zanjir bo'g'inlari o'rtasidagi qiymat taqsimotini boshqaruvchi tizim	Milliy sanoat siyosati darajasi bilan bog'lash	[8], [9], [10], [11]
Institutsional	Szirmai, Rodrik, Lin	Institutlar sifati va omil tarkibiga moslashuvchi tizim	Empirik o'lchash apparatini kengaytirish	[12], [13], [14]

1-jadvalda to'rt yondashuv bir-birini to'ldiradi va turli tahlil darajalariga tegishli: funksional yondashuv boshqaruv jarayonini, instrumental yondashuv vositalar to'plamini, tarmoq-zanjir yondashuvi tarmoq ichidagi taqsimotni, institutsional yondashuv esa muhit sifatini tavsiflaydi. Ularni yagona konstruksiyada birlashtirish va mexanizmga teskari aloqaga ega tizim sifatida qarash keyingi tadqiqot uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Maqola aynan shu yo'nalishda hissa qo'shishga qaratildi.

METODOLOGIYA


Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda mavjud ta'riflar qiyosiy tahlil qilinib, ular uch guruhga ajratildi: mexanizmni boshqaruv funksiyalari

¹ Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

yig'indisi sifatida qaraydigan, uni davlat vositalari majmui deb hisoblaydigan hamda unga tizim sifatida yondashadigan guruh. Ushbu tahlil asosida quyidagi ta'rif ilgari surildi: to'qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish mexanizmi - tarmoq subyektlarining tola yetishtirishdan tayyor mahsulot savdosigacha bo'lgan qiymat zanjiri bo'ylab harakatini institutsional, investitsion va innovatsion vositalar orqali muvofiqlashtiruvchi hamda ishlab chiqarish hajmining o'sishini qayta ishlash chuqurligi va mehnat unumdorligining o'sishiga aylantiruvchi, teskari aloqa konturlariga ega ko'p darajali boshqaruv tizimidir.

Ta'rif uch jihati bilan ajralib turadi: rivojlantirishning natijaviy mezonlari sifatida hajm bilan bir qatorda qayta ishlash chuqurligi va unumdorlik belgilangan; mexanizm tarkibi zanjir bo'g'inlariga bog'langan; ta'rifga teskari aloqa sharti kiritilgan. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan mexanizm to'rt shartga javob berishi maqsadga muvofiq: aniq va o'lchanadigan natijaviy mezonga ega bo'lishi, vositalari boshqarilayotgan obyekt tuzilmasiga mos tabaqalashtirilishi, natija haqidagi axborotni boshqaruv qaroriga qaytaruvchi kanalga ega bo'lishi va tashqi sharoit o'zgarganda parametrlarini qayta sozlash qobiliyatini saqlashi [12], [14].

Ikkinchi bosqichda ta'rifdan kelib chiqadigan tuzilma ko'p darajali arxitektura sifatida qurildi (2-rasm). Uchinchi bosqichda mexanizm tarkibi tarmoqning texnologik va iqtisodiy xususiyatlaridan keltirib chiqarildi: xomashyoga va uning mavsumiyligiga bog'liqlik, qiymat zanjirining ko'p bo'g'inliligi, mehnat sig'imining yuqoriligi, resurs sig'imi va ekologik mas'uliyat, moda siklining qisqaligi, xalqaro sertifikatlash talablari hamda tashqi talab konyunkturasiga sezgirlik. Ushbu yetti xususiyatning har biri mexanizmga aniq talab qo'yadi va ular o'zaro bog'liq tarzda namoyon bo'ladi.



2-rasm. To'qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish mexanizmining ko'p darajali arxitekturası¹


Darajalar o'rtasidagi munosabat o'zaro shartlanish xarakteriga ega: makrodarajada qabul qilingan mezon mezodaraja tuzilmalarining faoliyat yo'nalishini shakllantiradi, mezodarajadagi taqsimot esa korxonalarning texnologiya tanlashiga ta'sir ko'rsatadi. Natijaviy axborot ikki kontur orqali qaytadi: qisqa kontur korxona

¹ Manba: [8], [11], [15] manbalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

natijalarini tarmoq darajasidagi qarorlarga bog'laydi, uzun kontur esa ularni sanoat siyosati parametrlarini yangilash uchun asos qilib beradi. Uzun konturning faol ishlashi mexanizmning o'z-o'zini sozlash qobiliyatini ta'minlaydigan asosiy resurs hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qiymat zanjiri bo'yicha qo'shilgan qiymat taqsimoti "U" shaklidagi egri chiziq bilan tavsiflanadi: eng yuqori qiymat zanjirining ikki uchida - seleksiya va tola sifati bo'g'inida hamda dizayn, brend va savdo bo'g'inida - shakllanadi, o'rta bo'g'inlar (yigirish, to'qish, tikuv) esa bazaviy qiymat zonasini tashkil etadi [8], [15]. O'zbekiston to'qimachilik sanoatida moddiy bo'g'inlar - tola yetishtirishdan tayyor kiyim tikishgacha - to'liq shakllangan, nomoddiy bo'g'inlar esa faol rivojlanish bosqichida. Qo'shilgan qiymatning bo'g'inlar bo'yicha taqsimoti 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Qiymat zanjiri bo'g'inlari bo'yicha qo'shilgan qiymat taqsimoti va O'zbekiston eksporti tarkibining o'zgarishi¹

Eksport tarkibining dinamikasi tarmoqning yuqori bo'g'inlarga bosqichma-bosqich siljiyotganini aniq ko'rsatadi: tayyor mahsulot ulushi 38,5 foizdan 54,3 foizga o'sdi, ip-kalava ulushi esa 45,8 foizdan 27,0 foizga o'zgardi [3]. Ushbu siljish ikki yil ichida ro'y bergani tarkibiy o'zgarishlarning yuqori sur'atidan dalolat beradi va belgilangan 70 foizlik maqsadli ko'rsatkichga yaqinlashish yo'nalishini tasdiqlaydi [1]. 2025-yilda eksport hajmi maqsadli ko'rsatkichning 62,5 foizini tashkil etdi, ya'ni tarkibiy sifat o'sgan sharoitda hajmiy ko'rsatkich bo'yicha sezilarli o'sish zaxirasi saqlanib qoldi.

Tarkibiy va hajmiy ko'rsatkichlarning birgalikda o'sishini ta'minlash mexanizmini takomillashtirishning markaziy vazifasi sifatida belgilandi. J. Xamfri va X. Shmitsning yuksalish tipologiyasi [11] nuqtai nazaridan hozirga qadar amalga oshirilgan tadbirlar asosan jarayon va mahsulotni takomillashtirish turiga tegishli bo'lib, ular ishlab chiqarish samaradorligini oshirgan va keyingi bosqich uchun mustahkam baza yaratgan. Zanjirdagi mavqening yanada mustahkamlanishi funksional yuksalish - dizayn, brend va savdo funksiyalarini o'z zimmasiga olish - orqali

¹ Manba: [8], [15], [16] manbalari va rasmiy statistik ma'lumotlar [3] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ta'minlanadi, taklif etilgan arxitekturada esa aynan shu funksiyalar mezodaraja tarkibiga alohida kiritildi.

R. Mudambining nomoddiy aktivlar haqidagi xulosasi [15] taklif etilayotgan yondashuvning nazariy asosini kuchaytiradi: yuqori daromad tadqiqot, dizayn, brend va savdo bo'g'inlarida shakllanar ekan, rag'bat tizimini nomoddiy aktivlarni qamrab oladigan mezonlar bilan boyitish qo'shimcha samara beradi. Bu xulosa M. Makmillan va D. Rodrikning tarkibiy o'zgarish unumdorlik o'sishining mustaqil manbai ekani haqidagi natijasi [17] bilan uyg'un keladi: hajm o'sishi va tarkibiy o'zgarish bir-birini to'ldiruvchi ikki manba sifatida birgalikda eng yuqori natija beradi.

Trayektoriya nazariyasining [18], [19] tarmoq darajasidagi tatbiqi rag'batlantirish mezonlarining strategik ahamiyatini ochib beradi. Klassik misollarda trayektoriyaning texnik standart yoki dastlabki ustunlik shakllantirsa, to'qimachilik sanoatida uning o'rnini rag'batlantirish mezonini egallaydi. Hajm va eksport tushumiga bog'langan qo'llab-quvvatlash tarmoqning ishlab chiqarish bazasini muvaffaqiyatli shakllantirdi; mezonlar qatoriga qayta ishlash chuqurligi va qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarining qo'shilishi esa keyingi bosqichda yuqori bo'g'inlarga siljishni tezlashtiradi. Mezon har yili qayta tasdiqlanadigan institutsional qaror bo'lgani uchun uni yangilash amaliy jihatdan qulay va tez natija beradigan vositadir.

Hududiy kesimdagi ma'lumotlar mexanizmni tabaqalashtirish imkoniyatini ko'rsatadi: Farg'ona viloyatida 2025-yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik eksporti tarkibida ip-kalava 54,2 foizni, tayyor mahsulot esa 20,3 foizni tashkil etdi [3]. Hududlar o'rtasidagi tarkibiy farq tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvatlarini va dizayn infratuzilmasini hududlarga kengaytirish orqali qo'shimcha o'sish manbaini yuzaga chiqarish mumkinligini bildiradi [13].

2-jadval

Mexanizmni takomillashtirish yo'nalishlari va tadqiqot vazifalari¹

Yo'nalish	Mazmuni	Tadqiqot vazifasi	Kutilayotgan natija
Nazariy	Mexanizmni teskari aloqaga ega tizim sifatida talqin qilish	Ko'p darajali arxitekturani qurish va konturlarni ajratish	Boshqaruvning o'z-o'zini sozlash qobiliyati
Metodologik	Hajm, chuqurlik va qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarini birlashtirish	Integral baholash modeli va mezon qiymatlarini ishlab chiqish	Rivojlanishning yaxlit o'lchovi
Empirik	Tahlilni hududlar kesimiga kengaytirish	Panel ma'lumotlar va samaradorlik chegarasi tahlilini o'tkazish	Hududiy salohiyatning aniq bahosi
Amaliy	Rag'bat vositalarini zanjir bo'g'inlariga moslashtirish	Tabaqalashtirilgan rag'batlantirish tartibini asoslash	Yuqori bo'g'inlarga siljishning tezlashuvi
Institutsional	Klaster siyosati bilan sanoat siyosatini bog'lash	Institutsional-investitsion-innovatsion konturni takomillashtirish	Vositlarning yaxlit ta'siri

¹ Manba: muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Tadqiqot natijalari asosida mexanizmni takomillashtirishning yo‘nalishlari va ularga mos vazifalar 2-jadvalda tizimlashtirildi, ularning o‘zaro bog‘liqligi esa 4-rasmda umumlashtirildi.

Yo‘nalishlarning o‘zaro bog‘liqligi ustuvorlik tartibini belgilaydi. Rag‘batlantirish mezonlarini boyitish boshqaruv konturida joylashgani sababli birlamchi yo‘nalish sifatida ajratildi: u qolgan yo‘nalishlar bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlarning samarasini kuchaytiradi. Integratsiya yo‘nalishini oldinga qarab, ya‘ni tayyor mahsulot va savdo bo‘g‘inlari tomon kengaytirish hamda ekologik va ijtimoiy standartlarga muvofiqlik sertifikatlarini olish yuqori bo‘g‘inlarga chiqishning eng qisqa yo‘llaridan biri sifatida qo‘shimcha imkoniyat yaratadi [9], [12].



4-rasm. To‘qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlarining xaritasi¹

Tadqiqotning hozirgi bosqichida mexanizm arxitekturasini va yo‘nalishlar tizimi sifat jihatidan asoslandi; ularni miqdoriy jihatdan tasdiqlash uchun tarkibiy siljishlar tahlili, samaradorlik chegarasi tahlili va panel regressiya modeli qo‘llanilishi rejalashtirilgan. Qiymat zanjiri bo‘yicha qo‘shilgan qiymat taqsimoti ekspert baholash asosida tuzilgan bo‘lib, uning aniq empirik o‘lchovi alohida ma‘lumot to‘plamini talab qiladi [16].

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot to‘qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish mexanizmini nazariy jihatdan yaxlit talqin qilish imkonini berdi. Sanoat rivojlanishi nazariyalarining to‘rt bosqichli evolyutsiyasi ko‘rib chiqilib, hozirgi bosqichda tarmoq rivojlanishi qiymat zanjiridagi mavqe va institutsional muhit sifati orqali belgilanishi asoslandi.

Mavjud ta‘riflar tahlili asosida mexanizmga mualliflik ta‘rifi berildi. Uning o‘ziga xosligi natijaviy mezonlar qatoriga qayta ishlash chuqurligi va mehnat unumdorligining kiritilgani hamda tarkibga teskari aloqa konturlarining qo‘shilganidadir. Qiymat zanjiri tahlili tarmoqning moddiy bo‘g‘inlari to‘liq shakllangani va nomoddiy bo‘g‘inlar faol rivojlanayotganini ko‘rsatdi; 2025-yil natijalari eksport tarkibidagi sifat o‘shini tasdiqladi.

Takliflar quyidagilardan iborat. Birinchidan, qo‘llab-quvvatlash mezonlarini hajm ko‘rsatkichi bilan bir qatorda qayta ishlash chuqurligi va qo‘shilgan qiymat ko‘rsatkichlari bilan boyitish maqsadga muvofiq; bu chora korxonalar uchun yuqori

¹ Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

bo'g'inlarga siljishni iqtisodiy jihatdan jozibador qiladi [15]. Ikkinchidan, rag'bat vositalarini zanjir bo'g'inlari bo'yicha tabaqalashtirish tarmoqning har bir bosqichida eng samarali natijani ta'minlaydi.

Uchinchidan, mezodarajada dizayn, brend va savdo funksiyalarini rivojlantiruvchi institutlarni - dizayn markazlari, brend maktablari va savdo tarmoqlarini - alohida yo'nalish sifatida qo'llab-quvvatlash funksional yuksalishni tezlashtiradi. To'rtinchidan, ekologik va ijtimoiy standartlarga muvofiqlik sertifikatlarini olishni rag'batlantirish Yevropa va AQSH bozorlariga chiqishning qisqa yo'lini ochadi.

Beshinchidan, natijaviy axborotni sanoat siyosati mezonlariga qaytaruvchi uzun konturni rasmiylashtirish mexanizmning o'z-o'zini sozlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Oltinchidan, tayyor mahsulot quvvatlari va dizayn infratuzilmasini hududlarga kengaytirish qo'shimcha o'sish manbaini yuzaga chiqaradi. Keyingi tadqiqotlarda mexanizmning miqdoriy baholash modelini ishlab chiqish va uni hududlar kesimida sinovdan o'tkazish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7330228>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6908347>
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Sanoat va tashqi savdo bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar. <https://stat.uz/>
4. Rostow W. W. The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. - Cambridge: Cambridge University Press, 1960. - P. 4-16.
5. Hirschman A. O. The Strategy of Economic Development. - New Haven: Yale University Press, 1958. - P. 98-104.
6. Kaldor N. Causes of the Slow Rate of Economic Growth of the United Kingdom. - Cambridge: Cambridge University Press, 1966. - P. 3-12.
7. Amsden A. H. Asia's Next Giant: South Korea and Late Industrialization. - New York: Oxford University Press, 1989. - P. 55-70.
8. Gereffi G. International Trade and Industrial Upgrading in the Apparel Commodity Chain // Journal of International Economics. - 1999. - Vol. 48, No. 1. - P. 37-70. [https://doi.org/10.1016/S0022-1996\(98\)00075-0](https://doi.org/10.1016/S0022-1996(98)00075-0)
9. Gereffi G., Humphrey J., Sturgeon T. The Governance of Global Value Chains // Review of International Political Economy. - 2005. - Vol. 12, No. 1. - P. 78-104. <https://doi.org/10.1080/09692290500049805>
10. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990. - P. 69-130.

11. Humphrey J., Schmitz H. How Does Insertion in Global Value Chains Affect Upgrading in Industrial Clusters? // *Regional Studies*. - 2002. - Vol. 36, No. 9. - P. 1017-1027. <https://doi.org/10.1080/0034340022000022198>
12. Szirmai A. Industrialisation as an Engine of Growth in Developing Countries, 1950-2005 // *Structural Change and Economic Dynamics*. - 2012. - Vol. 23, No. 4. - P. 406-420. <https://doi.org/10.1016/j.strueco.2011.01.005>
13. Rodrik D. Premature Deindustrialization // *Journal of Economic Growth*. - 2016. - Vol. 21, No. 1. - P. 1-33. <https://doi.org/10.1007/s10887-015-9122-3>
14. Lin J. Y. *New Structural Economics: A Framework for Rethinking Development and Policy*. - Washington: World Bank, 2012. - P. 21-40.
15. Mudambi R. Location, Control and Innovation in Knowledge-Intensive Industries // *Journal of Economic Geography*. - 2008. - Vol. 8, No. 5. - P. 699-725. <https://doi.org/10.1093/jeg/lbn024>
16. Kaplinsky R., Morris M. *A Handbook for Value Chain Research*. - Ottawa: IDRC, 2001. - P. 25-38.
17. McMillan M., Rodrik D. Globalization, Structural Change and Productivity Growth. - NBER Working Paper No. 17143. - Cambridge, MA: NBER, 2011. - P. 9-22. <https://doi.org/10.3386/w17143>
18. Arthur W. B. Competing Technologies, Increasing Returns, and Lock-In by Historical Events // *The Economic Journal*. - 1989. - Vol. 99, No. 394. - P. 116-131. <https://doi.org/10.2307/2234208>
19. David P. A. Clio and the Economics of QWERTY // *The American Economic Review*. - 1985. - Vol. 75, No. 2. - P. 332-337.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, avgust, 8-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 362/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**